

## O'ZBEK XALQ ERTAKLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

*Erbo'tayeva Nozanin O'tkirovna*

*Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti*

*Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich*

*Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarini o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim tizimida samarali o'qitishning nazariy asoslari, pedagogik ishlab chiqarishlar hamda interfaol ta'lim metodik ta'limga ta'sir ko'rsatishlari tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va xalq pedagogikasi an'analarining uyg'unlashuvi orqali o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan interfaol metodlarni bilish faolligi, mustaqil fikrlash va badiiy tafakkurning rivojlanishidagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'z:** xalq ertaklari, interfaol metodlar, kompetensial yondashuv, integrativ metodika, rolli o'yinlar, raqamli texnologiyalar, xalq pedagogikasi, o'zbek xalq ertaklari, zamonaviy yorug'liklar, badiiy tafakkur.

## THE USE OF MODERN TEACHING METHODS IN TEACHING UZBEK FOLK TALES

*Nozanin O'tkirovna Erbo'tayeva*

*Master's student in Uzbek Language and Literature, Faculty of Languages*

*Normuhammad Xasanovich Ubaydullayev*

*Research Supervisor: Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Doctor of Philological Sciences (DS)*

**Abstract.** This article analyzes the theoretical foundations of effective teaching within the modern educational system in the process of teaching Uzbek folk tales, as

well as the impact of pedagogical innovations and interactive teaching methods on the educational process. The study highlights ways to enhance teaching effectiveness through the integration of modern pedagogical technologies, digital tools, and traditions of folk pedagogy. Furthermore, it substantiates the significance of interactive methods in developing students' cognitive activity, independent thinking, and artistic thinking.

**Keywords:** folk tales, interactive methods, competence-based approach, integrative methodology, role-playing games, digital technologies, folk pedagogy, Uzbek folk tales, modern approaches, artistic thinking.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

*Эрбутаева Нозанин Уткировна*

*Магистрантка направления узбекского языка и литературы факультета языков*

*Убайдуллаев Нормухаммад Хасанович*

*Научный руководитель: доцент кафедры узбекского языка и литературы,  
доктор филологических наук*

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические основы эффективного обучения в условиях современной образовательной системы при преподавании узбекских народных сказок, а также рассматривается влияние педагогических инноваций и интерактивных методов обучения на образовательный процесс. Показаны пути повышения эффективности обучения посредством интеграции современных педагогических технологий, цифровых средств и традиций народной педагогики. Обоснована значимость интерактивных методов в развитии познавательной активности, самостоятельного мышления и художественного мышления учащихся.

**Ключевые слова:** народные сказки, интерактивные методы, компетентностный подход, интегративная методика, ролевые игры, цифровые

*технологии, народная педагогика, узбекские народные сказки, современные подходы, художественное мышление.*

**Kirish.** Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonida ta'lim mazmunini ta'minlanishi, o'zbek xalq ertak namunalarini o'qitilishi, zamonaviy pedagogik yutuqlardan foydalanilishi kabilarga yuksak e'tibor berilmoqda. O'zbek xalq ertaklari xalqimizning eng ulug'vor sifatlarini yuzaga chiqaradi, jamiyatning insoniyligini, vatanparvarligini, sadoqatini, mardligini va jasorati kabi yuksak hislatlarini yuzaga chiqaradi.

Xalq og'zaki ijodi – har bir millatning ma'naviy madaniyatining asosiy manbayi hisoblanadi. O'zbek xalq ertaklari ming yillik tarixga ega bo'lib, ularning yuzaga kelishi va shakllanishi ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Ertaklar o'ziga xos g'oyaviy – tematik yo'nalishi, ta'limiy – estetik funksiyasi bilan ajralib turadi, ularda mardlik va qahramonlik, adolat, insonparvarlik va vatanparvarlik, chin sevgi, sadoqat, vafodorlik kabi ideal orzular hayoliy va xayotiy uydirmalar fondida hikoya qilinadi. Ertaklarda xalqqa xos dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarini, estetik tasavvurlari va badiiy tafakkurining xususiyatlari aks etgan. Zamonaviy ta'lim tizimida bu ertaklarni o'qitish nafaqat adabiyot fanining tarkibiy qismi, balki milliy ruhiyatni shakllantirish, axloqiy-estetik tarbiya berish va kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. O'quvchilar ertaklarni faqat qisqa mazmuni bilan eslab qolmoqda, ularning badiiy qadriyatlarini, tarbiyaviy ahamiyatini to'liq yuzaga chiqmayapti. Shu sababli, o'zbek xalq ertaklarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va interfaol metodlarni qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Yozuvchi Maksim Gorkiy – “ertak va uning g'oyaviy - badiiy tabiati haqida fikr yuritib ertak asosida uydirma yotajakliligi”ga ishora qiladi.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish. O'zbek xalq ertaklarini o'qitishda quyidagi kompetensiyalar rivojlantiriladi. O'quvchi o'z millati madaniyatini, uning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini tushunadi va qadrlaydi. Ertaklar orqali milliy urf-odatlar, an'analar, kiyim-kechak, taomlar, tabiat tasavvuri haqida bilim oladi. Ertaklarni o'qish, tahlil qilish, muhokama qilish jarayonida o'quvchining og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi,

boshqa insonlar bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi. Ertak muhokamasi o'quvchilarni erkin fikr yuritishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatadi. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini baholash orqali o'quvchi yaxshi va yomonni ajrata oladi, axloqiy tanlash qobiliyati shakllanadi. Ertaklarni qayta ishlash, yangi ertaklar yaratish, qahramonlar tasvirini chizish kabi faoliyatlar ijodkorlikni rivojlantiradi. O'quvchi o'z tasavvuridan foydalanib, yangi ertak syujetlari yaratish, rasmi chizmalar chizish, asarda tilga olingan buyumlarni yasash kabi yangi g'oyalar yuzaga keladi. Zamonaviy ta'lim nazariyasida shaxsga yo'qotilgan narsa o'rin egallaydi. Ish boshqaruvchilar o'quvchilar individual inobatga olingan va o'rganilganlarini, holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Ertaklarni o'qitishda interfaol metodlar o'quvchilarning voqealarga munosabatini aniqlash, shaxsiy fikr bildirish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar mavzu mohiyatini to'liqroq tushunib etishlari va muayyan xulosaga kela olishlari uchun interfaol ta'lim metodlari bilan bir qatorda raqamli vositalar, xalq pedagogikasi an'analaridan bir me'yorda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## 1-jadval

JADVAL 1. O'zbek Xalq Ertaklarini O'qitishda Zamonaviy Ta'lim Metodlari Tahlili					
№	Metod / Yondashuv	Mohiyati	Pedagogik Maqsad	Afzalliklari	Qo'llanish Shakli
1	Interfaol ta'lim metodi	O'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi o'qitish usuli	Bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish	Tanqidiy tafakkurni shakllantiradi; o'quvchi markazlashgan jarayon	Guruhli muhokama, rol o'yini, debat
2	Raqamli vositalar (Digital Tools)	Multimedia, animatsiya, elektron resurslar orqali o'qitish	Zamonaviy texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish	Vizual idrokni kuchaytiradi; qiziqishni oshiradi	Elektron darsliklar, video, interaktiv taqdimotlar
3	Xalq pedagogikasi an'analari	Milliy urf-odat, maqol, topishmoq, ertak orqali tarbiya	Milliy o'zlikni anglash va axloqiy tarbiya	Madaniy merosni saqlab qoladi; hayotiy misollar	Ertak tahlili, maqol sharhi, milliy o'yinlar
4	Loyiha asosida o'qitish (PBL)	Muammo hal qilish orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish	Ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish	Amaliy ko'nikmalar beradi; jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi	Ertak yaratish, sahna loyihasi, tadqiqot ishi
5	Muammoli ta'lim texnologiyasi	Savol-javob, munozara orqali muammoni hal etish	Analitik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish	Chuqur tushunishni ta'minlaydi; intellektual faollikni oshiradi	Muammoli savollar, keys-stadi, seminar
6	Kooperativ o'qitish	Kichik guruhlar ichida hamkorlikda o'rganish	Jamoa ruhi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish	Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi; o'zaro o'rganish	Guruh loyihasi, juft ishlash, mozaika metodi

Zamonaviy ta'lim tizimida ertaklarni o'qitish nafaqat adabiyot fanining tarkibiy qismi, balki milliy ruhiyatni shakllantirish, axloqiy-estetik tarbiya berish va kreativ

fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir, ammo amaliy – ta’lim jarayonida an’anaviy metodlar (o’qituvchi o’qiydi, o’quvchi tinglaydi, savol-javob) hali ham ustunlik qilmoqda. Natijada o’quvchilar ertaklarni faqat qisqa mazmuni bilan eslab qolmoqda, ularning badiiy qadriyatlarini, tarbiyaviy ahamiyatini to’liq anglolmayapti. Shu sababli o’zbek xalq ertaklarini o’qitishda zamonaviy yondashuvlar va interfaol metodlarni qo’llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

## 2-jadval

JADVAL 2. O'zbek Xalq Ertaklarini O'qitishda Samaradorlikka Ta'sir Etuvchi Omillar					
№	Omil	Tavsifi	O'quvchiga Ta'siri	Pedagogik Natija	Baholash Mezonlari
1	Badiiy tafakkur	Ertak obrazlari orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish	Tasavvur va ijodiy qobiliyatning o'sishi	Mustaqil ijodiy ishlar, kompozitsiya yozish	Ijodiy ish sifati, originallik darajasi
2	Milliy qadriyatlar integratsiyasi	Ertaklardagi axloqiy qoidalarni hozirgi hayotga bog'lash	Milliy o'zlikni anglash, axloqiy yetuklik	Qadriyatlarga asoslangan xulq-atvor shakllanishi	Muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik
3	Kommunikativ kompetensiya	Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini ertak orqali rivojlantirish	So'z boyligi, nutq ravonligi oshishi	Nutq madaniyatining yuksalishi	Og'zaki javob, insho, taqdimot sifati
4	Motivatsiya va qiziqish	Ertak janrining o'quvchiga jozibadorligidan foydalanish	O'qishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq ortishi	Darsga faol qatnashish, uy vazifalarini bajarish	Dars faolligi, mustaqil o'qish ko'rsatkichlari
5	Texnologik imkoniyatlar	Raqamli ertaklar, audio-video materiallar qo'llash	Multimedia orqali idrokni kengaytirish	Zamonaviy o'qish kompetensiyasini shakllantirish	Raqamli savodxonlik darajasi

Ushbu jadval asosida biz ertaklarni o’qitishda samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib chiqqanmiz. Unga ko‘ra bir necha omillar o’quvchiga qay ko‘rinishda ta’sir etishi va amaliy tomonlama pedagogik natija bosqichma - bosqich ko‘zga tashlanishi izohlangan.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar deganda – o‘quvchi talabalarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda o‘qituvchi o‘quvchilarni faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini

faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

***Interfaol ta'limning asosiy mezonlari:***

- ✓ norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish,
- ✓ o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati,
- ✓ ma'ruzalar soni kamligi, seminarlar soni ko'pligi,
- ✓ o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi,
- ✓ kichik va katta guruh sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish,
- ✓ yozma ishlar bajarish kabi metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.[3]

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi.

***Interfaol metodlar:*** “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blits-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lim” kabi.

***Interfaol ta'lim strategiyalari:*** “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zigzag”, “Zinama-zina”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

***Interfaol grafik organayzerlar:*** “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarini o'qitishda zamonaviy pedagog o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, badiiy tafakkur va axloqiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ertaklarini o'qitish jarayonida interfaol

metodlarni keng zarurligini ko'rsatadi. O'zbek xalq ertaklarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va interfaol metodlar samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.. Raqamli texnologiyalar zamonaviy o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi. An'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish, o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish, individual yondashuv qo'llash – o'zbek xalq ertaklarini samarali o'qitishning asosiy shartlari hisoblanadi.

Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, etuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Berdiqulov R. O'zbek xalq ertaklarining janr va uslubiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 21-bet.
2. Dolimov S., Ubaydullayev H. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 1967. – B. 14.
3. Otaboyeva M.P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi // Молодой ученый. 2017. № 4.2 (138.2) – B. 36 – 37.  
<https://moluch.ru/archive/138/39058>
4. Rahimov A. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2019. – B. 94.
5. Sultonov I. Xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – B. 45.
6. Zunnunov A., Hotamov N. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 1992. – B. 18.